



BANK INNOVATSIYALARINI JORIY QILISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

Xodjimamedov Akmal Ashurovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi. Samarqand, O'zbekiston. E-mail: khodjimamedov@rambler.ru ORCID: 0000-0002-0876-6671

PROSPECTS AND PROBLEMS OF INTRODUCING BANKING INNOVATIONS

Khodjimamedov Akmal Ashurovich

Independent researcher Samarkand institute of economics and service, Samarkand, Uzbekistan.
E-mail: khodjimamedov@rambler.ru ORCID: 0000-0002-0876-6671

JEL Classification: E5, E58, E59

Annotatsiya. Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini tashkil etish va mavjud imkoniyatlardan foydalanib ularni takomillashtirish muhim vazifalardan biridir. Maqolada moliya bozorini rag'batlantiradigan va uni takomillashtirishga olib keladigan innovatsion jarayonning strategiyasi ko'rib chiqilgan. Zamonaviy jamiyatda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan yuzaga keladigan innovatsion o'zgarishlarning bank sektoriga bo'ladigan global ta'siri ko'rib chiqilgan va tahlil etilgan. Ushbu bosqichda rivojlanayotgan texnologik jarayonlar tufayli bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan eng jiddiy va muhim risklar ko'rsatib o'tilgan.

Hozirgi vaqtida iqtisodiyotning globallashuvi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida, iqtisodiyotni raqamlashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni yangi bosqichga o'tkazish masalalari dolzarb bo'lib turibdi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiysi 20 asrning oxirlarida ishlab chiqilanligiga qaramay, bu jarayonlar oxirgi 5-7 yillikda amalga oshishni boshladi. Tadqiqot maqsadi raqamli transformatsiyaning mamlakat iqtisodiyoti

uchun ahamiyatini baholashdan iborat. Moliya bozorida mahalliy va xorijiy banklar va boshqa nobank kredit tashkilotlari o'rtaida jadal o'sib borayotgan raqobat sharoitida u yoki bu davrda kuchli vositaga aylanishi mumkin bo'lgan innovatsiyalarni ishlab chiqish vajoriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, maqolada zamonaviy bank sektoridagi innovatsiyalarning o'ziga xos turlari, shuningdek, ularning tijorat banklariga ta'siri muhokama qilinadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida innovatsiyalar muhim o'rinn tutadi. Tadqiqot natijasida banklarda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari o'rganilib, ularni bartaraf etishning istiqbolli yo'naliishlari belgilab olingan. Bank innovatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha yetakchi olimlar fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, bank tizimini raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni qiyoslash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi hamda bank innovatsiyalarini joriy qilish va takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Abstract. Today, in the context of digitalization of commercial banks, one of the important tasks is to organize banking innovations and improve them using existing opportunities. The article discusses the strategy of the innovation process that stimulates and improves the financial market. The global impact of innovative changes in the banking sector with the emergence of new technologies in modern society has been considered and analyzed. At this stage, the most serious and important risks that may arise in the banking activity due to evolving technological processes are identified.

At present, in the context of globalization of the economy and the development of information technology, the issue of moving to a new stage of the process associated with the digitization of the economy is urgent. Although the concept of the digital economy was developed in the late 20th century, these processes have begun to take place in the last 5-7 years. The aim of the study is to assess the importance of digital transformation for the country's economy. In the financial market, special attention is paid to the development and implementation of innovations that can become a powerful tool in one period or another in the context of growing competition between local and foreign banks and other non-bank credit institutions. In addition, the article discusses the specific types of innovations in the modern banking sector, as well as their impact on commercial banks.

Innovation plays an important role in the globalization of the world economy. As a result of the study, the problems of using digital technologies in banks were studied and promising directions for their solution were identified. The views of leading scholars on improving banking innovation were analyzed. In addition, proposals and recommendations for improving banking

innovation in the context of digitalization of the banking system were formulated.

In the process of preparing the scientific article, the methods of data comparison, logical and structural analysis, grouping and comparative comparison were used, and conclusions and recommendations on the introduction and improvement of banking innovations were formed.

Kalit so`zlar. Innovatsiyalar, bank xizmatlari, investitsiyalar, FinTech, banklar, bank risklari, raqamli texnologiyalar, startap, internet.

Key words Innovations, banking services, investments, FinTech, banks, banking risks, digital technologies, startups, internet.

Kirish. Bugungi kunda, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish innovatsiyalar nuqtai nazaridan, ushbu sohaga ko`proq e`tibor qaratilishini taqozo etmoqda. Shu sababli, aynan ma'lum bir innovatsion operatsiyalarning o'ziga xosligi iqtisodiyot darajasini oshirishga va uning barcha segmentlarining barqaror ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Ma'lumki, aynan innovatsiyalar, moliya bozori segmentiga kuchli ta'sir ko'rsatib, aynan ushbu sohada yuzaga keladigan ayrim jarayonlarning minimal va qisqa dinamikasi nafaqat davlatlararo tartibga solish darajasida, balki butun xalqaro moliya tizimi doirasidagi muhim iqtisodiy o'zgarishlarni rag'batlantirilishiga olib keladi [2]. Ushbu yoki boshqa o'zgarishlar iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qilishi yoki aksincha uzoq muddatli moliyaviy taqchillikka olib kelishi mumkin. Shunga qaramay, hozirgi zamon voqeiliklari, innovatsiyalarning jamiyat hayotining barcha jabhalarida yuzaga kelayotgan salbiy dinamik jarayonlarga ta'siri nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda. Shunday ekan, innovatsiyalar –

texnologiyalarni rivojlantirish darajasi va sifatini oshirishni rag'batlantiradi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, rivojlanayotgan moliyaviy bozor doirasida innovatsion jarayonni rag'batlantirish uchun bir nechta sabablarni qayd qilish lozim [3]. Birinchi navbatda bu xarajatlarni kamaytirish, operatsiyalarni xedjerlash va yuqori foyda olish dolzarbli masalalarini e'tirof etish lozim. Umuman olganda esa, yuqorida qayd etilganlarning barchasi istiqbolli loyihalarni yaratishga yordam beradi. Binobarin, iqtisodiyotga tashqi ta'sirni ham unutmaslik kerak, chunki bu ham yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni yaratish imkonini beradi.

Shu o'rinda, globallashuv davrini ham alohida e'tiborga olish lozim bo'lib, bu o'ziga xos jarayon sifatida kompaniyalarning rentabelligini oshirishga bevosita ta'sir qilib, moliya sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llash va joriy etish, shuningdek, mahsulotlarni tez sotish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, globallashuv xalqaro moliyaviy brokerlar o'rtasidagi raqobat jarayonlarini rag'batlantiradi [4]. Bu holat davlatning moliya sektorida joriy etilayotgan innovatsiyalar bilan bir qatorda raqobatning o'zaro ta'sirini aniq tavsiflash imkonini beradi.

Raqobatning o'ziga keladigan bo'lsak, uning moliya bozorida paydo bo'lishi ma'lum kompaniyalarning yangi mahsulot yaratishga qaratilgan maqsadining muvofiqligiga olib keladi va bu o'z navbatida bozorda ijobjiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ayrim bozor sub'ektlari o'zlariga xos bo'limgan harakatlarni amalga oshira boshlaydi, yangi xalqaro moliya institutlari paydo bo'ladi, ikkilamchi va mutlaqo innovatsion qimmatli qog'ozlar harakati sodir bo'ladi, eng muhim, boshqa turdag'i operatsiyalar yaratiladi, ulardan eng muhim moliyaviy risklarni

xedjirlash va innovatsion jarayonlarni strukturaviy tarzda moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Axborotlashtirishning zamonaviy va noyob yutuqlarini moliya institutlari faoliyatiga ommaviy tatbiq etish moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat moliyaviy innovatsiyalar manbai bo'lib hisoblanadi, balki bir nechta bozorlarning o'ziga xos to'qnashuvini rag'batlantirib, ma'lum moliyaviy muammolarning bir-biriga o'tishiga xizmat qiladi [5]. Buning sababi bo'lib, bozor operatorlarining harakatlari yoki ma'lumotlarning tezda harakatlanishi oqibatida bo'lishi mumkin.

Yuqorida qayd etilganlardan, iqtisodiyotning tashqi ta'siri ijobjiy innovatsiyalar va inqirozli innovatsiyalar yordamida davlatning moliyaviy tarkibiy qismiga ta'sir qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tijorat banklari innovatsion faoliyatning asosiy sub'ektlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda, bank sektoriga tegishli innovatsiyalarni alohida qayd etib o'tish lozim. Bunday innovatsiya – mahsulot va xizmatlarni yaratish va amalga oshirishda mutlaqo yangi bo'lgan biznes modellari, tashkiliy, funksional va operatsion innovatsiyalarning o'ziga xos bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi.

Dastavval, bank sohasidagi innovatsiya turlariga aniqlik kiritish muhimdir. Bularga axborot texnologiyalari (birinchi navbatda, bank kartalari, internet-banking, mobil banking), mahsulot (ipoteka, mikro-kreditlash) va boshqaruv (monitoring va nazorat) innovatsiyalari kiradi [6]. Bunday innovatsion o'zgarishlar tijorat banklarining rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ayniqsa, mavjud bo'lgan raqobat sharoitida va bozorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan

inqirozli vaziyatlarda ijobiy o`zgarishlarga olib keladi.

Material va metod. Ishni yozish jarayonida tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini tashkil etish va mavjud imkoniyatlardan foydalanib ularni takomillashtirish bilan bog`liq muammolarni o`rganish hamda analitik tahlillarni olib borishni taqozo etdi. Ishda ma`lumotlarni qiyoslash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Bank sektori rivojlanishining hozirgi bosqichidan ko`rinib turibdiki, aynan xalqaro moliyaviy inqiroz, jahon moliya bozorlarining integratsiyasi, shuningdek, bank va nobank sektorlari o`rtasida vujudga kelgan raqobat banklarda innovatsion faoliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bank xizmatlari bozoridagi bu kabi holatlar uning ishtirokchilarining sifati va sonini belgilab beradi, bu esa iste`molchilarning harakatlarida nazoratsizlikka olib kelishi mumkin [7]. Shunday ekan, muayyan innovatsiyalarini yaratish va amalga oshirish, banklar uchun o`z mijozlari uchun xizmatlarini optimallashtirish orqali ularni rag`batlantirish uchun deyarli yagona yechim sifatida e`tirof etilishi mumkin. Bank innovatsiyalari qisqa muddatli istiqbolda bank sektorining rivojlanish yo`nalishini belgilab beradi.

Yevropa moliyaviy menejment assotssiyasi (EFMA) tomonidan olib borilgan tahlil natijalariga ko`ra, so`nggi yillarda dunyoda Yevropa banklari innovatsion rivojlanish bo`yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda [8]. Bu, avvalo, o`z faoliyatiga mutlaqo yangi xizmatlarning joriy etilishi bilan bog`liq bo`lib hisoblanadi. Ammo shuni ham qayd etish kerakki, o`z davlatida rivojlangan iqtisodiyotga ega bo`lgan ko`plab tijorat tashkilotlari bank xizmatlarining yangi formatidan foydalanishga shoshilishmaydi va ko`pincha hadiksirab qarashadi.

Makroregulyatorning ta'siri kuchayayotgan va IT-tizimlari jadal rivojlanayotgan bir davrda, tijorat banklari faoliyati jarayoniga innovatsiyalarini jalb etish asosan 3 yo`nalishda amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, xarajatlarni kamaytirish bilan bir qatorda, mijozlar ehtiyojini qondirish usullarini tahlil qilib, chakana savdo tarmog`ini faol ravishda rivojlantirishga asosiy e`tiborni qaratish lozim.

Bank faoliyatining asosiy e`tibori, birinchi navbatda iste`molchilarga qaratilgan bo`lib, bu o`z navbatida innovatsiyalarga ham tegishli hisoblanadi. Barcha innovatsion mahsulotlar va xizmatlar mijoz uchun yanada qulaylik yaratish maqsadida amalga oshiriladi, chunki yangi xizmatlarning rivojlanish darajasi va ularning faoliyatiga bevosita ta'sirini – mijoz belgilaydi.

Hozirgi sharoitda dunyoning yirik banklari innovatsiyalarning quyidagi asosiy turlarini amalga oshirmoqdalar [9]:

- bir xizmatni boshqasiga almashtirishda yuzaga keladigan barcha turdag'i xarajatlarni kamaytirish uchun eng yangi xizmatlarni birlashtirish;
- banklar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning u yoki bu turlarining barcha afzalliklarini saqlab qolish uchun oflays va onlays resurslarning istiqbolli kombinatsiyasi;
- 24/7 ish rejimida xizmat ko`rsatish;
- innovatsion bank xizmatlarini (masalan, kontaktsiz bilaguzuk yoki biometrik treker) taqdim etish bo`yicha bankning bozordagi imidji darajasini ko`rsatadigan to`lov vositasi/to`lov usulini qo`llash;
- tijorat banklarining e`tiborini kichik va o`rta biznesga qaratish, bu esa o`z navbatida, hozirgi kundagi eng yuqori daromad keltiradigan soha hisoblanadi.

Bugungi kunda innovatsiyalarning o'sishi, asosan, jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar bozori va ma`lumotlarni qidirish, birlashtirish va tahlil qilishning yangi variantlari paydo bo`lishi bilan bog`liq holat bo`lib hisoblanadi. Shunday ekan, zamonaviy moliya bozori hozirda innovatsiyalarini rivojlantirish uchun juda

katta miqdordagi moliyaviy investitsiyalar kiritilayotgan "fintex startaplari" ning keskin o'sishi bilan tavsiflanadi. Kiritilgan investitsiyalar natijasida innovatsion o'sishga erishilsa-da, lekin shu bilan birga raqobatning bir qismi sifatida bank sektoriga zarar ham yetkazish holatlari kuzatilmoxda. Jahonning yetakchi olimlarning fikriga ko'ra, chakana biznes yaqin 10-12 yil ichida tijorat banklariga

salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud bo`lib, bu esa banklar foydasining 10-40 dan 20-60 foizigacha kamayishiga olib kelishi mumkin [10]. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, banklar o'z faoliyati samaradorligini oshirish va mijozlar oldidagi o'z obro`sinи oshirib borishga intilish barobarida, bu qiyinchiliklarni yengib o'tishga va ko'plab to'siqlarni chetlab o'tishga harakat qilishmoqda.

1-jadval


Raqamli texnologiyalar rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi to'siqlar¹

Tashqi to`sqliar	Ichki to`sqliar
Mamlakatdagi iqtisodiy beqarorlik, milliy valyuta kursining o'zgaruvchanligi	Raqamli texnologiyalarni qo'llash qimmatliligi
Raqamli texnologiyalarni qo'llash standartlari hamda raqamli chekllovlar yo`qligi	Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda loyihaning yetarli darajada moliyalashtirilmaganligi
Raqamli texnologiyalarni joriy etish kompaniyaning o'zi, shuningdek, an'anaviy biznes modeliga amal qiluvchi yetkazib beruvchilarning xarajatlarini oshiradi.	Raqamli texnologiyalarning afzalliklari haqida qaror qabul qiluvchilarning yetarli ma'lumotga ega emasligi
Mijozlarning an'anaviy mahsulot (xizmat)larga o'r ganib qolganligi	Xodimlarning odatiy ish uslubini o'zgartirishni istamasligi
Yuqori darajadagi risklar, shu jumladan bozor, boshqa mamlakat xavf-xatarlari va boshqalar.	Raqamli texnologiyalarni joriy etishning mumkin bo'lgan xavflari haqida qaror qabul qiluvchilarning yetarli axborotlari yo`qligi

E'tiborli jihat shundaki, 2008 yildagi global moliyaviy inqiroz boshlangan davrda ham, amalda bo`lgan sharoitlar tufayli moliyaviy kompaniyalar byudjetlarining xarajatlar qismi sezilarli darajada qisqarib, Fintex kompaniyalarga dastlabki qiziqishlar paydo bo`la boshladi. Bu insoniyatning hozirgi vaqtdagi axborot texnologiyalariga tobora ortib borayotgan qaramligiga ta'sir etmasdan qolmas edi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda odamlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi maxsus axborot makonida 24/7 ishlaydi, shuning uchun zamонавиy turmush sharoiti moliyaviy

faoliyatda tub o'zgarishlarni, moliyadan foydalanishning yangi usullarini izlashni talab qiladi. Yuqorida qilardan moliyaviy innovatsiyalar bozorida nima uchun fintex kompaniyalarining o'sish darajasi so'nggi yillarda bu qadar yuqori ekanligi ma'lum bo`ladi. Katta ehtimol bilan, bank innovatsiyalari rivojlanishining hozirgi bosqichida, eng yuqori o'rnlarni moliyaviy texnologiyalar egallaydi, bozor esa ushu texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Mayjud ma'lumotlarga tayanib aytadigan bo`lsak, dunyoda moliyaviy texnologiyalar iste'molchilari soni har yili 15-20% ga oshadi [11].

¹ Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.



**1-rasm. Dunyo mamlakatlariga moliyaviy texnologik xizmatlarning kirib borish darajasi
2019 yil holatiga²**


Dunyo bo'yicha Fintex loyihalarini rivojlantirish uchun moliyaviy investitsiyalarni ta'minlashga qaratilgan asosiy resurs – bu venchur kapitali bo'lib, uning ulushi, turli hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy moliyalashtirishning qariyb 70% ni tashkil qilmoqda [13]. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019-yilda investorlar va homiylar tomonidan fintex startaplarini rivojlantirishga rekord darajadagi 100 mlrd. AQSH dollari sarflangan. Taqqoslash uchun ushbu qiymat 2017 yilda 1134 ta investitsion loyiha doirasida 29 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan (2-rasm). Global vaziyat shuni anglatmoqdaki, fintex sanoati bo'yicha dunyoda AQSH va Buyuk Britaniya peshqadamlikni egallab turibdi.

Hozirgi vaqtga kelib, moliya kompaniyalari ushbu ko'rsatkich bo'yicha innovatsion tashkilotlarga yetib olish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga faol mablag' kiritishni boshlagan bo'lsa, bugungi kunda boshqa sohalar ham ularga moliyaviy texnologiyalarning bosqichma-bosqich kirib borishi bilan ajralib turadi. Asosiy raqobatchilar sifatida Internet telekommunikatsiya texnologiyalari segmentidagi turli yirik korporatsiyalarni qayd etib o'tish lozim. Moliya bozoridagi hozirgi vaziyat shuni taqozo etmoqdaki, fintex loyihalari uchun raqobat kuchayganligi sababli, banklar o'zlarining biznes modellarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqdalar. Amaliyotdan shu narsa

² manba: EY Global FinTech Adoption Index ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ma'lum bo'ladiki, buning natijasida, yangi xavflar paydo bo'ladi, mavjudlarining xavfi ortadi, bundan tashqari,

bu jarayon juda qiyin va ko'p sarf harajatlarni talab etadi.



2-rasm. 2010-2017 yillarda global miqyosda Fintex kompaniyalarga kiritilgan investitsiyalar³.

Hozirgi vaqtga kelib jahon moliya bozorida faoliyat yuritayotgan Fintex loyihalari doirasida Xitoyning Lu.com startapini e'tirof etish lozim. Ushbu loyihaning umumiyligi kapitali 18,5 mlrd.AQSH dollarini tashkil etib, asosan kichik biznes va xususiy sektorni kreditlashni onlayn

platforma orqali amalga oshirib kelmoqda. Umuman olganda ushbu ko'rsatkich bo'yicha jahonda AQSH va Xitoy kompaniyalari yetakchi bo'lib hisoblanadi. Quyidagi jadvalda eng ko'p aktivlarga ega bo'lgan Fintex kompaniyalar soni keltirilgan (2-jadval).

2-jadval.

Dunyodagi yirik fintex kompaniyalar 2018 yil holatiga [14].

T/r	Mamlakat	Kompaniya nomi	Aktivlari mlrd.AQSH dollar	Faoliyat yo`nalishi
1	Xitoy	Lu.com	\$18,5	Kichik biznes va xususiy sektorni onlayn kreditlash
2	AQSH	Stripe	\$9,2	Elektron tijorat, mijozlarga elektron to`lovlarni amalga oshirish
3	Xitoy	Zhong An insurance	\$8,0	Elektron sug`urta
4	Hindiston	One97 communications	\$4,8	Elektron tijorat korxonalari uchun mobil internet va to`lovlarni qabul qilish
5	AQSH	Social Finance	\$4,0	Bitiruvchi talabalarni kreditlash


³ Xalqaro auditorlik kompaniyasi (KPMG) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Mamlakatimizda ham bu borada so`nggi 4 yil ichida sezilarli darajada ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 2021 yil 1 noyabrda Bank Apelsin aksiyadorlik jamiyatini ro`yhatdan o`tkazish va unga bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish to`g`risida qaror qabul qildi. Bu orqali O`zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan raqamli banklar soni 3 taga yetdi (Anor Bank, TBC Bank, Apelsin Bank). Bundan tashqari, respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan

Respublikamizda, raqamli iqtisodiyot sharoitida, xorij tajribasiga asosan to`lov xizmatlari sohasiga axborot-texnologiyalarini yanada kengroq tadbiq etish hamda to`lov xizmatlari bozoriga yangi ishtirokchilarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, masofaviy bank xizmatlari sonini oshirish orqali ko`plab bank xizmatlarini avtomatlashtirish ishlari olib borilmoqda. Xususan, kontaktsiz to`lovlar (QR-kod, NFC va boshqalar) qamrovini kengaytirish, avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash shuningdek, bank sohasida Fintex va raqamli banklarni joriy qilishga asosiy e'tibor

mijozlarga qulay va zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish borasida ham o`zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, mobil va internet banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2020 yil 1 yanvar holatiga 10 153 458 tani (shundan yuridik shaxslar 691008 ta, jismoniy shaxslar 9462450 ta) tashkil etgan bo`lsa, 2022 yil 1 yanvar holatiga esa, bu xizmatlardan foydalanuvchilar soni ikki barobar oshib 20 203 384 ta (shundan yuridik shaxslar 968580 ta, jismoniy shaxslar 19 234 804 ta)ni tashkil etgan (3-rasm).


qaratilmoqda. Bank plastik kartasi va to`lov terminallaridan bevosita foydalanilmagan holda, tovar va xizmatlar uchun mobil ilova dasturi yordamida QR-kod orqali tezkor to`lovlarni amalga oshirish maqsadida ishga tushirilgan QR-online tizimi bu borada qilinayotgan ishlarga yaqqol misol bo`la oladi. Xususan, yuqorida qayd etilgan axborot tizimi orqali tadbirkorlik sub`yektlariga taqdim etilgan QR-kodlar soni 2021 yilda 92 ming.donaga yetib, 2020 yilga nisbatan 1,5 barobarga o`sgran. Xuddi shunday, QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni ham hajmi ham yildan yilga o`sib bormoqda (4 va 5-rasmlar).



3-rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni (ming)⁴.

⁴ Manba: <https://cbu.uz>

Shuningdek, kontaktsiz to`lov texnologiyasini kengaytirish maqsadida, "Humo Pay" dasturi yordamida bank kartasidan foydalanilmagan holda to`lovlarni amalga oshirish xizmati yurtimizda faoliyat yuritayotgan **14** ta bankning mobil ilovalari orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Bundan tashqari, "Tap-to-phone" tizimi (terminalsiz) orqali tadbirkorlar uchun to`lovlarni qabul qilish imkoniyatini beruvchi xizmatdan esa 380 ta tadbirkorlar foydalanmoqda. 2021




4-rasm. QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni

yilda NFC texnologiyasi asosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2020 yilga nisbatan **4** barobarga oshib, **11,8** trln.so`mni tashkil etgan. Natijada esa, kontaktsiz to`lov texnologiyalari bilan qamrab olish darajasi bugungi kunga kelib **40** foizga yetdi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank innovatsiyalarini takomillashtirish maqsadida, banklar va to`lov tashkilotlari tomonidan xizmatlar ko`rsatish jarayonida mijozlarni masofaviy biometric identifikasiya qilish tizimi tashkil etildi. Buning natijasida esa, mijozlarga bank xizmatidan bankga bevosita tashrif buyurmagan holda foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, 2021 yilda tijorat

banklari tomonidan mobil xizmatlarni taqdim etishda raqamli identifikasiya qilish mexanizmi (Face ID) yaratilib, ushbu texnologiyadan hozirgi kunda **11** ta tijorat banki, **4** ta to`lov tashkiloti hamda **4** ta marketpleys foydalanmoqda.

Munozara. Mamlakatimizda oxirgi bir necha yil mobaynida amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, o`tkazilgan va olib borilgan tadqiqotlar bu sohada yetarlichcha muammolar borligini ko`rsatmoqda. Olib



5-rasm. QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi, mln.so`mda

borilgan tahlillar natijasiga ko`ra mutaxassislar bank filiallarida mijozlar uchun turli shart-sharoitlarni, xizmat ko`rsatish kanallarini (onlayn chat, telegram bot va boshqalar) yaratish va boshqa shunga o`xshash kamchiliklar borligini ta`kidlashmoqda. Ilgari Click, Payme va boshqa ilovalar pul o`tkazmalari, onlayn to`lovlar va h.k. xizmatlarni ko`rsatuvchilar tijorat banklarining moliya bozoridagi ulushini tushirib yuborgan bo`lsa, hozirgi kunga kelib bir nechta banklar bu boradagi innovatsiyalarni kuchaytirib bozordagi yo`qotilgan o`rinlarini tiklashga muvaffaq bo`lmoqdalar. Bu bilan esa, bank ilovalari uzoq vaqtdan beri faqat o`z mijozlariga

xizmat ko`rsatishdan barcha foydalanuvchilarga xizmat ko`rsatish bosqichiga chiqishga erishdi. Bugungi kunga kelib, O`zbekistonda 3 ta raqamli bank Markaziy bankning litsenziyasiga ega bo`lib, ular: Gruziyaning TBC Banki, mahalliy Anor bank va Apelsin ilovalaridir. Ushbu uchala raqamli banklarning mobil ilovalarini yuklab olgan foydalanuvchilar soni esa 2021 yilda jami hisoblaganda 5 mln.dan oshganligini ta'kidlab o`tish lozim.

Shunday qilib, innovatsiyalarni yaratish xavf-xatarlarning yuzaga kelishi bilan chambarchas bog'liqligi barchaga ayon bo`lib hisoblanadi. Ularning eng muhimi rentabellikning pasayishi, mijozlar va aniq ma'lumotlarning yomon himoyalanishi, shuningdek, innovatsion rivojlanish davridagi jarayonlar va jarayonlardagi nomutanosiblikdir. Yangi texnologik jarayonlarning rivojlanishi, ijobiy holat bo`lishiga qaramay, noqonuniy firibgarlik sxemalarining paydo bo`lishini rag'batlantirish mumkin, bu esa o'z navbatida mijozlarni himoya qilishga va banklar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar xavfsizligiga qaratilgan moliyaviy investitsiyalar hajmini oshirni taqozo etadi.

Bugungi kunda zamonaviy yuqori texnologiyalar rivojlangan bir davrda, sun'iy intellektni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa ijtimoiy xavfning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi [15]. Ya'ni, bunday texnologiyadan foydalanish kishilarning moliyaviy sektordagi ishtiroki (ish o'rnlari)ni keskin qisqarishiga olib keladi.

Moliya sohasi rivojlanishining hozirgi bosqichida zamonaviy texnologiyalar va biznes jarayonlarning joriy etilgani banklarga o'z faoliyatini ikki yo'nalishda samarali amalga oshirish imkonini bermoqda. Bunda banklar allaqachon mayjud fintex startaplarini sotib olishga majbur

bo'ladilar yoki startaplarni mustaqil ravishda moliyalashtiradilar. Hozirda banklar bunday jarayonga tayyor bo`lmasliklari mumkin, chunki bu juda murakkab tizim bo'lib, uni faqat mamlakat bank tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etuvchi eng yirik banklar amalga oshirishi mumkin. Qolgan banklarga keladigan bo`lsak, ular juda qisqa vaqt mobaynida kuchliroq va ishonchli tuzilmalar yoki investorlar tomonidan moliyalashtirilib bu jarayondan ortda qolmaslikka harakat qilishlari lozim bo`lib hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari jamiyatga, insonga, uning dunyoqarashiga juda kuchli ta'sir ko`rsatishi hech kimga sir emas. Internet bugungi kunda bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishda banklar va uning mijozlari o'rtasidagi munosabatlarga yangicha qarashlarni belgilab beradi. Muayyan o'zgarishlarga moliyaviy moslashish natijasi mumkin bo'lgan inqirozni yoki muayyan banklarning va umuman butun moliyaviy tizimning rivojlanish imkoniyatlarini oldindan belgilab beradi. Joriy qilinayotgan innovatsiyalar va ularni iste'molchilarga taqdim etish tezligi so'nggi paytlarda bir necha barobar oshdi, chunki zamonaviy odamlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda va kundalik hayotda ulardan foydalanishda ko'proq vaqt sarflaydilar. Shu munosabat bilan mijozlarning yuqori darajadagi xabardorligi, talablarning ortib borishi, banklar faoliyatiga bo`lgan talablarning ortib borishi bilan kuzatilmoqda. Bu banklarni mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga, bank mahsulotlari va xizmatlari turlarini ko'paytirishga rag'batlantirmoqda va umuman, banklarni iste'molchilarning so'rovlariga oqilona yechim topishga undamoqda.

Xulosa. Shunday qilib, quyida bank innovatsiyalarini qollash va joriy etish istiqbollarini uchun amaliyatga joriy etilishi lozim bo`lgan takliflarni keltiramiz:

1. Aniq strategiya va natijaga yo`naltirilgan maqsadni belgilagan holda, ulkan maqsadlar yangi biznes modellarini yaratish va rivojlantirish jarayoni, dasturni amalga oshirish harajatlarining aniq hisobi, raqamlashtirish tadbirlari va raqamli transformatsiyadan kelib chiqadigan xavflarni aniqlash;
2. Zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirish doirasida noyob bank mahsulotlari va xizmatlarini yaratish va qo'llash;
3. Mijozlarning bank innovatsiyalariga bo'lgan talabini oshirish maqsadida yakuniy iste'molchiga yangi mahsulot va xizmatlar haqida to'liq ma'lumot berish;
4. Virtual-telekommunikatsion moliyaviy texnologiyalarini qo'llash hamda axborot uzatish kanallari darajasi va uni xavfsizligi darajasini oshirish;
5. Internet yoki maxsus ijtimoiy tarmoqdan foydalangan holda bank mahsulotlari va

xizmatlarini joriy etish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasida bank xodimlarining malaka darajasini muntazam ravishda oshirib borish

6. Yangi texnologiyalarni qo'llashga qodir bo'lgan aniq kompaniyalar bilan o'zaro hamkorlik qilish va zarur bo`lsa banklarni noyob istiqbolli loyihalar (start-aplar) bilan ta'minlash.

Xulosa o'rnda shuni ta'kilash lozimki, bank innovatsiyalarini rivojlantirishning bunday shartlari, innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning eng maqbul mexanizmini yaratadi, foydalanilayotgan texnologiyalar, mahsulot va xizmatlarning sifat darajasini oshiradi, eng muhimmi, banklarda innovatsion xizmatlarning raqobat darajasini oshirib, mamlakatimiz bank tizimini dunyoning yetakchi davlatlari bank tizimidan qolishmaydigan darajadagi tizimga aylanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Аскинадзи В.М. Инвестиционные стратегии банков. Монография (Серия «Академическая серия»). – М.: Маркет ДС Корпорейшн, 2015.
2. Ачкасов А.И. Общая характеристика и техника совершения использования пластиковых карт. // Банк внешнеэкономической деятельности. – М.: КонсалтБанкир, 2018. – 471 с.
3. Башаримов Д.Ю. Совершенствования системы управления персоналом коммерческого банка// Вестник удмуртского университета. – 2017. – №3. – С. 32–36.
4. Рычов И.Д. Применение инновационных техннологий в банковской сфере //Научное сообщество студентов ХХI столетия. Экономические науки: сб. ст. по мат. LXXXV междунар.студ.науч-практ. конф. № 1(85). URL: [https://sibac.info/archive/economy/1\(85\).pdf](https://sibac.info/archive/economy/1(85).pdf)
5. Беляева И.Ю., Эскиндаров М.А. Корпоративная социальная ответственность: управленический аспект: монография / под общ. ред. д-ра экон. наук, проф. И.Ю. Беляевой, д-ра экон. наук, проф. М.А. Эскиндарова. – М.: КноРус, 2018. – 503 с.
6. Флигинских Т.Н., Тарасова Т.Ю. Факторы, определяющие развитие инноваций в виде новых банковских продуктов //Креативная экономика. – 2016. – Т. 10. – № 10. – С. 1157–1168. – DOI: 10.18334/ce.10.10.36906
7. Ванюгина С.В. Формы и методы финансирования инновационной деятельности корпораций// Вестник финансово-экономического института. – 2018. – № 2. – С. 33.



8. Вукович Г.Г., Терихов М.С. Финансирование инновационной деятельности в Российской Федерации // Общество: политика, экономика, право. – 2017. – № 2. – С. 49–51.
9. Макашева Н.П. О роли частного бизнеса в финансировании инновационной деятельности // Проблемы учета и финансов. – 2016. – № 2. – С. 35–41.
10. Лаврушин О.И. Новые модели банковской деятельности в современной экономике: монография/коллектив авторов; под ред. Лаврушина.–М.:КноРус, 2019. – 168 с.
11. https://assets.ey.com/content/dam/ey-sites/ey-com/en_gl/topics/banking-and-capital-markets/ey-global-fintech-adoption-index.pdf Мурожаат санаси: 29.05.2022 й.
12. Hamel Gary. Leading the Revolution: How to Thrive in Turbulent Times by Making Innovation a Way of Life. July 30, 2002. Page #370
13. Ulf Larsson, Alfred Nobel. Networks of Innovations. 2008. Archives of the Nobel Museum, ISSN 1404-7586. Page #220
14. <https://fortunly.com/statistics/fintech-statistics/> Мурожаат санаси: 29.05.2022 й.
15. Goyal J. et al. Efficiency and technology gaps in Indian banking sector: Application of meta-frontier directional distance function DEA approach //The Journal of Finance and Data Science. – 2019. – Т. 5. – №. 3. – С. 156-172.
16. Mujinga M., Eloff M. M., Kroese J. H. System usability scale evaluation of online banking services: A South African study // South African Journal of Science. 2018. Vol. 114. No. 3/4. URL: <https://doi.org/10.17159/sajs.2018/20170065>.
17. O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021 yildagi faoliyati to`grisidagi hisobot. <https://cbu.uz/>